

SUN'iy INTELEKTNING TA'LIM SOHASIDA YARATADIGAN IMKONIYATLARI

Tajibayev Muxiddin Abdurashidovich

Jizzax politexnika instituti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt rivojining ayni paytdagi holati, uning turli jihatlari va u bilan bog'liq xavotirlar xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, zamonaviy texnologiyalar, ChatGPT, Bing, AI, chat-botlar, «deepfake», «midjourney», «super sun'iy intellekt».

OPPORTUNITIES CREATED BY ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE FIELD OF EDUCATION

**Tajibayev Muxiddin Abdurashidovich Jizzakh polytechnic institute,
Social Department of Sciences " associate professor**

Annotation: This article discusses the current state of development of artificial intelligence, its various aspects and the problems associated with it.

Key words: artificial intelligence, modern technologies, ChatGPT, Bing, AI, chatbots, «deepfake», «midjourney», «super artificial intelligence».

So'nggi paytlarda sun'iy intellekt mavzusi butun dunyoda keng muhokama qilinib turli shov-shuvlarga ham sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, Amerikadagi zamonaviy texnologiyalar bo'yicha gigant kompaniyalar rahbarlarining yaqinda jamoaviy tarzda e'lon qilingan sun'iy intellekt ishlanmalarini vaqtincha to'xtatishga chorlovchi ochiq xati esa ko'pchilikni shoshirib qo'ydi. Inson tomonidan yaratilgan sun'iy ong chindan ham uning o'ziga tahdid soluvchi xatarli kuchga aylanadimi?

Aslida, bu savol anchadan beri bor edi. Gollivudda shu mavzuda ishlangan ajoyib-g'aroyib filmlarni muxlislar sevib tomosha qilishar, lekin deyarli hech kim ularni jiddiy qabul qilmas edi. Biroq, ayni vaqtga kelib jahonda sun'iy intellekt

bilan bog'liq ishlanmalar aqlbovar qilmas natijalarni berayapti va hamon shiddat bilan rivojlanishda davom etmoqda. Sun'iy aql amalga oshirayotgan ishlar insonlarni hayrat-u hadikka solishdan to'xtamayapti. Haydovchisiz boshqariladigan mashinalar, virtual suhbatdoshlar, global qidiruv tizimlari, talabalarga kurs ishini beminnat yozib beruvchi yordamchi chat-botlar... Bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin. Ular tobora raqamlashib borayotgan hayotimizning har jabhasida hoziru nozir.

Xo'sh, sun'iy intellekt o'zi nima, uning foyda va ziyoni qanday? Undan shu qadar xavfsirashimiz o'rinlimi? Eng asosiy savol – bu yangilik yoshlar hayotiga qay darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin? Quyida shu kabi savollarga javob topishga harakat qilamiz.

Hech mubolag'asiz, bugun biz fantastik filmlarda tasvirlanganidek, uzoq kelajakda yashayapmiz. Atrofingizga bundoq nazar solsangiz, kundalik hayotingizdagi ko'plab vazifalarni bevosita yoki bilvosita texnologik uskunalari bajarayotganini ko'rasiz. Biron-bir ishni bajarish uchun qaysidir tugmachani bosishning o'zi kifoya. Chunki hozirgi zamonaviy elektron qurilmalarning barchasi sun'iy intellektning u yoki bu darajadagi ishlanmalari bilan jihozlangan.

Oddiyroq aytganda, sun'iy intellekt texnologiyasiga oid elektron qurilmalar odamzodning odatiy yumushlarini allaqachon o'z elkasiga olgan. Bu texnologiya insonlarga musiqiy pleylistdan qaysidir qo'shiqni tavsiya qiladi, biron manzilga tez va oson etib olish yo'lini ko'rsatadi. Bundan tashqari o'zi turli ko'ngilochar o'yinlar, musiqiy asarlar yaratadi. Turli muammolarni bartaraf etish bo'yicha foydali taklif va tavsiyalar ham beradi.

Afzalliklari bilan birga kamchiliklari ham bor. Yutuqlari haqida gapiradigan bo'lsak, ushbu «taraqqiyot mo''jizasi» bizning intellektimiz va qobiliyatimizni oshirishga xizmat qilishi mumkin. Asosiysi, u bizga kerakli ma'lumotlarni qisqa fursatlarda topish va turli vazifalarni bajarishda yanada samaraliroq bo'lish imkonini beradi. Shuningdek, sun'iy idrok orqali turli xil murakkab vazifalarni tez va oson bajarish mumkin. Bu esa odamlarga vaqtini tejash va o'zini qiziqtirgan narsalarga e'tibor qaratish imkonini yaratadi. Shuningdek, sun'iy intellekt inson

sog'lig'i va hayoti uchun xavfli bo'lgan og'ir vazifalar: insonlarni favqulodda vaziyatlardan qutqarish, yong'inlarni o'chirish va shu kabi boshqa vazifalarni bajarishda ham yordamlashadi.

Bugun sun'iy intellekt hamma joyda hoziru nozir. Xususan, u internet, ijtimoiy tarmoq, aqlli gadjetlardan tortib, Siri, Alisa, Google assistent kabi personal virtual yordamchilar va boshqa ko'plab kundalik foydalaniladigan dasturlarda etakchi. Hozirgi yoshlar – Z va Alfa avlodi texnologiyalar qurshovida ulg'aymoqda. Ular o'zlari sezmagan holda sun'iy intellekt bilan qamrab olingan.

Albatta, smartfonlar, planshetlar, kompyuterlardan keng miqyosda foydalanish natijasida yoshlar sun'iy intellekt bilan etarli darajada tanishishga ulgurishgan. Internetdan multfilmlarni qidirayotgan bolakayga ibtidoiy sun'iy idrok texnologiyasi kelgusida uning qiziqishlariga mazmunan yaqin bo'lgan materiallarni taklif qila boshlaydi. Ijtimoiy tarmoqdagi kontentlarni foydalanuvchining shaxsiy qiziqishlariga mos ravishda saralash va taklif qilish ham sun'iy idrokning vazifalaridan biridir.

Sun'iy intellektning ta'lim sohasida yaratadigan imkoniyatlari – yoshlar uchun eng foydali jihati hisoblanadi. Misol uchun, individuallashtirilgan sun'iy intellekt texnologiyalari sinfxonalarda o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichini yaxshilashda asqotishi mumkin. Bunday texnologiyalar ta'lim muassasalarining har bir o'quvchiga sifatliroq ta'lim berishi va hech kim o'zlashtirishda ortda qolmasligida yordam beradi.

Ta'lim berishda sun'iy aqlning boshqa ko'plab foydali jihatlari ham talaygina. Misol uchun, ta'lim jarayoni bilan bog'liq onlayn tizimlar va butun boshli raqamli platformalar sun'iy idrokdan foydalangan holda ingliz tilida so'zlashuvchi ayrim davlatlarda allaqachon o'qituvchilarga o'quvchilarning insholarini tekshirish kabi baholash ishlarida yordam berishmoqda. Ba'zi tadqiqotlar esa shuni ko'rsatdiki, algoritmlar o'quvchilarni eng yaxshi o'qituvchilardan ham ob'ektivroq baholaydi. Masalan, ular ba'zan o'qituvchida kuzatilishi mumkin bo'lgan shaxsiy munosabatdan holi ish yuritadi.

Biroq «tanganing orqa tomoni»ga nazar tashlaydigan bo'lsak, sun'iy intellektning yoshlarga salbiy ta'siri ham talaygina. Eng avvalo, u bolalarning shaxsiy hayoti va xavfsizligiga jiddiy zarar etkazishi mumkinligi haqida xavotirlar mavjud. Xususan, bolaga tegishli dalillar, uning muhim biometrik ma'lumotlari virtual yordamchilar va «aqlli o'yinchoqlar» tomonidan yozib olinib, qayta ishlanadi. Bunday ma'lumotlar qora niyatli kimsalar, kompaniyalar qo'lga tushib qolsa, yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Sun'iy intellekt rivojlanishda davom etar ekan, har qanday jamiyatda ushbu texnologiyani insoniyat uchun zararsiz holatda loyihalash va undan xavfsiz foydalanish masalalarini hal qilish lozim bo'ladi. Afsuski, sun'iy intellekt yoshlar orasida ayyorlik bilan o'z maqsadiga oson erishish vositasiga aylanishi ham mumkin. Misol uchun, yaqinda Rossiyadagi oliy o'quv yurtlaridan birining uddaburon talabasi Chat GPT deb nomlangan takomillashtirilgan sun'iy intellekt chat-boti tomonidan yozib berilgan diplom ishini muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu voqea jamoatchilikning qizg'in muhokamalariga sabab bo'ldi. Gap shundaki, insonlar bilan bir necha tilda erkin «gaplasha oladigan» Chat GPT texnologiyasi «mijozi»ning talabiga asosan inshodan tortib, hikoya va diplom ishigacha yozib berishi mumkin. Shuningdek, u har qanday savolga batafsil javob berib, insonlar bilan erkin muloqot qila oladi. Qolaversa, ko'z ochib-yumguncha fursatda murakkab mavzularda, ixcham materiallar tayyorlash «qobiliyatiga ega». Biroq bunday «beminnat yordam» oqibatida ko'plab yoshlar o'qib-izlanishni yig'ishtirib, asosiy masalalarni ushbu dasturlar zimmasiga yuklab qo'yishmoqda. Diplom va kurs ishlari, mustaqil ish kabi akademik vazifalar chat-botlar yordamida yozilmoqda. Bunday materiallar inson tomonidan yozilgan ishlarga shunchalik o'xshashki, aksariyat hollarda ularni farqlashning imkoni yo'q.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt ta'limda shunchaki yordamchi vosita emas, balki o'qitish tizimini tubdan isloh qiluvchi kuchli dvigateldir. Uning asosiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Inson omilini kuchaytirish: SI o'qituvchining o'rnini bosmaydi, balki uni zerikarli qog'ozbozlikdan xalos qilib, bor e'tiborini o'quvchi bilan ijodiy muloqotga qaratishga imkon beradi.

2. Teng imkoniyatlar: Dunyoning istalgan nuqtasidagi o'quvchi SI yordamida shaxsiy repetitorga va eng zamonaviy bilimlar bazasiga ega bo'ladi.

3. Samaradorlik: Ta'lim jarayoni "hamma uchun bir xil" yondashuvidan voz kechib, har bir talabaning individual qobiliyatiga moslashadi, bu esa o'zlashtirish ko'rsatkichini keskin oshiradi.

Muxtasar qilib aytganda, sun'iy intellekt ta'limni yanada inklyuziv, qulay va shaxsga yo'naltirilgan sohaga aylantirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stuart Russell, Peter Norvig. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. – Pearson, 2021.
2. Wayne Holmes, Maya Bialik, Charles Fadel. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. – 2019.
3. UNESCO. *Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development*. – 2019.
4. OECD. *AI and the Future of Skills, Volume 1: Capabilities and Assessments*. – 2021.
5. Rose Luckin. *Towards Artificial Intelligence-Based Assessment Systems*. – *Nature Human Behaviour*, 2016.